OILAVIY MUNOSABATLARNING O'QUVCHI MUVAFFAQIYATIGA BILVOSITA TA'SIRI: PSIHOLOGIK IQLIMNING AHAMIYATI

Dadasheva Maftuna Abdulhamid qizi
Masofaviy ta'lim Psihologiya yo'nalishi
1-kurs talabasi
Qo'qon Universiteti Andijon filiali
Telefon;+998974862695
Xalimjanov Abduqunduz Rahimjon o'g'li
Kompyuter Injiniring va raqamli tehnologiyalar
Kafedrasi o'qituvchisi
Qo'qon universiteti Andijon filiali
Email; xalimjonov1234@gmail.com
alimqulovnurmukhammad@gmail.com

Annotatsiya*; bu tezisni yozishdan maqsadimiz nima deb o'ylaysiz?psihologik iqlum deganda nimani tushunish kerak?aynan shu savollarga javob topishga harakat qilamiz! Mazkur tezisda oila,jamoa va ta'lim muassasalarida psihologik iqlimning ahamiyati,uning inson faoliyati samaradorligiga ta'siri hamda sog'lom iqlimni shakllantirish omillari yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *sog'lom muhit,kelajak avlod, bola, salbiy, vatan,muomala, fazilat,oila,ota-ona,psihologik, iqlim,munosabat, muhit,motivatsiya, mas'uliyat*

Kirish. Psixologik iqlim:-jamoada yoki muassasada,oilada odamlarning o'zaro munosabatlar hissiyotlari, kayfiyalari va xatti-harakatlariga ta'sir qiluvchi umumiy psixologik muhitdir. Inson bolasining ongi asosan 5-7yoshda shakllanishini inobatga oladigan bo'lsak aynan anashu davrda uning qalbida oiladagi muhit ta'sirida ma'naviyatning ilk kurtaklari namoyon bo'la boshlaydi.Odamzod uchun bir umr zarur bo'ladigan tabiiy ko'nikma va xususiyatlar,masalan,har qaysi bolaning o'ziga xos va o'ziga mos qobiliyati,atrofidagi odamlar bilan muomalasi,tengdoshlari orasida o'zini qanday his qilishi,yetakchilik hislatlariga ega bo'lishi yoki bo'lmasligi,karak bo'lsa dunyo qarashi-bularning barchasi avvala uning tug'ma tabiati,shu bilan birga ,oilada oladigan tarbiyasiga uzviy bog'liq ekanini hayot tajribasi ko'p misollarda tasdiqlab beradi.Aynan mana shu davrda bola yaxshi bilan yomon o'rtasidagi farqni anglay boshlaydi,oiladagi,yon atrofdagi voqea-hodisalar xususidagi taasurotlar uning ongiga singib boradi. .Oila vatan ichida kichik vatandir Oilaviy muhitning sog'lomligi-ota-ona va boshqa yaqinlari o'rtasidagi munasabatlarning maqsadga muvofiqligi bolada sog'lom fikr,ijobiy fazilat va intellectual sifatlarning namoyon bo'lishiga zamin yaratadi.Xalqimizga xos ustuvor fazilatlar asosan oilaviy muhitda,ota- ona yaqin

qarindoshlarning bevosita aralashuvida shakllanib boradi.Bu hol kattalarni hurmat qilish,kichiklarni e'zozlash,mehnatga to'g'ri munosabatda bo'lish,urf-odat va qadriyatlarni muqaddas bilish kabilarda o'z aksini topadi..Ota-onalarning bolalarga munosabati ularning mehri muhabbati,g'amxo'rligi,murabbiyligi sabab farzandlar ma'naviyati yuksaladi,o'zini o'rab turgan olam ;tabiat va jamiyatdagi mavjudotlarni umrbod e'zozlaydi,izzat-hurmat qiladi,qadriga yetadi.Bunday sifatlarni o'zlashtirib brogan har bir o'g'il qizda oilaparvarlik yurtparvarlik kabi olijanob fazilatlar kamol topadi.,.Ota onalarning o'zaro hurmati farzandning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi.Natijada uning yutuqlari kundan kunga ortib boradiOilaviy muhitning nosog'lomligi,oila a'zolari o'rtasidagi kelishmovchiliklar o'zaro til topisha olmaslik kabi holatlar bola ma'naviy olamining shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.Uning fe'l atvorida yolg'onchilik,xiyonatkorlik,bevafolik kabi salbiy illatlar namoyon bo'ladi Bunday xulq me'yorlarini o'zlashtirish oilaviy muhitdagi noxushliklar hamda organizmdagi fiziologik jarayonlar ta'sirida amalga oshadi.Tengqurlari guruhiga qo'shilish,turli jamoalarga a'zolik muqarrar jarayon bo'lib xulqdan og'diruvchi har qanday ta'sirga berilib yoki berilmaslik oilaviy muhitdagi tarbiyaga bog'liq..Onaning boshchiligidagi o'zaro hurmat va mehr muhabbatga asoslangan muhitni yaratish esa farzand tarbiyasida ijobiy psihologik iqlimni ta'minlaydi.Sog'lom oilaviy muhit bolaning intellectual rivojlanishi,ta'limdagi muvaffaqiyati ijtimoiy shaxs sifatida shakllanishida muhim poydevor vazifasini bajaradi.Kelajak bunyodkorlarining emotsional barqarorligi va ijtimoiy moslashuvchanligini ta'minlaydi,ullarning shakllanishida xal qiluvchi omil oilaviy iqlimning tozaligidir.

Metadalogiya: tahlil,taqqoslash,kuzatish va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi

Natija; Ijobiy psihologik iqlim mavjud bo'lgan oilada bolalar mehnatsevar, mehribon,tashabbuskor,odobli va bilimdon bo'lishi aniqlandi. Salbiy psihologik iqlim hukmron bo'lgan oila farzandlari jaxldor,tushkun,beparvo va motivatsiya pasayishi kuzatildi.

Xulosa; Psihologik iqlim shahsiy rivojlanish,oila va jamoa birligi va jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biridir.Ijobiy muhit sog'lom aloqalar,o'zaro hurmat va ishonch asasida shakllanadi.shunday ekan oilada,ta'lim muassasalarida psihologik muhitni mustahkamlash-kelajak avlodni har tomonlama yetuk va sog'lom shahs bo'lishi,samaradorlikni oshirish,va barqarorlikni ta'minlashni asosiy shartidir.Yana shuni qo'shimcha qilib aytish lozimki har bir farzand bizning kelajagimiz,ularning buyuk inson bo'lishi uchun oila va jamiyat uzviy bog'liqdir.Buning yorqin ifodasi oila,bog'cha,maktab va oliy o'quv yurtlaridagi sog'lom psihologik iqlimning ustuvor bo'lishidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR;

1. Zohidov H."Pedagogik psihologiya".Toshkent:Sharq 2020